

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

No 4

2025

APREL




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN
ACCES

ULRICH'S WEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛЯЛ

TDU
DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
1931



TULON KARIMOV NOMIDADI
TOSHKENT DAVLAT TEKNIKA UNIVERSITETI
TDTU

1955
TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT
AKHİMET - QURİLLİ
UNIVERSİTETİ

TJU
TOSHKENT KİMYO - TEKNOLOGİYA
AKHİMET - QURİLLİ
UNIVERSİTETİ

TJU
TOSHKENT POLİTEKNIK İNSTITUTI
DZAKİ POLİTEKNIK İNSTITUTI
1991



MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik

Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, TDIU kengash kotibi

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otobek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbanov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dots.nt

Bauyedtinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor. Buxoro davlat texnika universiteti

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil
28-avgustdagি 360/5-son
qarori bilan “Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etishga tavsiya etilgan milliy
ilmiy nashrlar ro'yxati”ga
texnika va iqtisodiyot fanlari
bo'yicha “Muhandislik va
iqtisodiyot” jurnali ro'yxatga
kiritilgan.

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Роль искусственного интеллекта в управлении финансовым потенциалом предприятий.....	10
Юсупов Файзулла Якубович	
Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini moliyaviy vositalar orqali takomillashtirish: "Navoiy" EIZ misolida.....	20
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Davlat xardilari jarayonini boshqarish va nazorat qilishning muhim jihatlari	26
Xodjamqulov Shahboz Sherali o'g'li	
Oliy ta'lim tizimini baholash: milliy model va global standartlar	31
Hakimov Hakimjon Abdullo o'g'li, Hakimova Gulnoza Abdulloyevna	
Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishda xorij tajribasi	37
Qodirov Iskandar Alisher o'g'li	
Механизмы адаптации рынка труда к новой модели экономического роста: теория, практика и цифровые решения	41
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
Xorazm viloyati eksport strategiyasini takomillashtirishning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlari.....	50
Fozil Xolmurotov	
Suv resurslarini tejashda aqlii sug'orish tizimlarining ahamiyati	62
Abdullahov A., Karimov Anvarjon Muqumjonovich	
To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati raqobatbardoshligini oshirishning marketing vositalari.....	68
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
The current state and development trends of innovative activity in agriculture	72
Aytmuratova Miyrigul Zhalgasovna	
Методология оценки инновационной деятельности	78
Алиева Эльнара Аметова	
Yashil iqtisodiy o'sishda raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlikning integratsiyalashuvi.....	86
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiya qilish yo'llari tahlili.....	92
Abdurazzoqov Abdualim Abdujabbor o'g'li	
Направления повышения эффективности средств, направляемых на обеспечение занятости населения и сокращение бедности	97
Маликов Ауезхан Жорабекович	
O'zbekiston uy xo'jaliklarining farovonlik koeffitsiyenti: blackorby va donaldson yondashuvi asosida tahlili.....	106
Boltayeva Dilafza Jumaqulovna	
O'zbekistonda aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zgarish dinamikasi	114
Qo'shbaqov Aybek Shovqiyevich	
Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, davlat iqtisdoi siyosatini takomillashtirish va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning samaradorligini oshirish yo'llari	123
Muratbaeva Leonora Muxamedjan qizi, Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich	
Yangi o'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari	132
Tojiyev Javlonbek Rustamovich	



Mulkchilik shakliga ko'ra tijorat banklarida depozitlarining amaldagi holati tahlili	138
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Bandlikni ta'minlashda moliyaviy mexanizmlarning o'rni va ahamiyati	151
Karimjonov Muhammadrasul To'iqinjon o'g'li	
Mustaqil direktorlar ulushi, nomoliyaviy axborotlarning oshkor qilinishi va dividend siyosatining kapital qiymatga kompleks ta'siri.....	159
Urinov Bobur Nasilloyevich	
Turizm orqali ish o'rinalarini yaratish va bandlik muammosini kamaytirish imkoniyatlari	167
Kaxramanova Sevda Shamsiddin qizi	
Kam quvvatli gidroelektr stansiya uchun mos bo'lgan invertor, reduktor, akkumulyator va generatorni tanlash.....	173
Xamrayev Og'abek Oybek o'g'li, Davletov I.Y.	
Raqamlı iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlarini ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari.....	182
Ibragimova Gulnoza Sayidmuradovna	
Terminologiya va ilmiy terminologiya xususida.....	188
Ruziyeva Gulnoz Temirqulovna	
O'zbekiston Respublikasida innovatsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish yo'llari.....	192
Ramazonov Javohir Bekzod o'g'li	
Bazalt chiqindi toshqol asosidagi kam suv talabchan sementlarning samaradorligini oshirish	197
Babayev Sultonbek Sunnat o'g'li	
Qashqadaryo qayta tiklanuvchi energiya manbalarining samaradorligini turli yondashuv asosida baholash.....	203
Omonova Sitora Zafar qizi, Utayev Sobir Achilovich	
Tilshunoslikning mexanika muhandisligi terminlari xususida.....	208
Mansurova Nafisa Qamariddinovna	
"Chizma geometriya va perspektiva" fanining arxitektura bilimlari tizimidagi roli	213
Yusubjonov Jonibek Farxod o'g'li	
Geodezik plan olishning avtomatlashgan usullari.....	219
Mamajonova Nodira Alisher qizi	
Zamonaviy arxitektura interyer dizaynida milliy grixva islomiy naqshlar uyg'unligi	225
Qo'chqarov Baxodir O'Imasovich	
Qurilishda mehnat unumdorligini oshirish va uni prognozlashning nazariy asoslari	230
Abduvaliyev Bekzod Muhiddin o'g'li	
Qishloq aholi hududlaridagi zamonaviy innovatsion o'zgarishlarining o'rta ta'lim maktablari tuzilishidagi ta'siri	235
Abdurahmonov Olimjon Obboqul o'g'li	
Seysmik hududlarda qurilish konstruksiyanalarini to'g'ri tanlash	241
Egamberdiyeva Shaxnoza Abdurashidovna	
Arixiy yodgorliklarning me'moriy-rejaviy, konstruktiv va badiiy bezak yechimlari.....	251
Sotvoldiyev Azamatjon Akramjon o'g'li	
Xitoy va O'zbekiston tajribasi asosida soliq to'lovchilar reytingi tizimi orqali fiskal intizomni mustahkamlash.....	255
Abdullahayev Zafarbek Safibullayevich	
Turizmga investitsiyalar iqtisodiyotimizga ijobiy ta'siri etuvchi omillari sifatida.....	268
Ayubov Illyos Ilhomovich, Tursunov Qosimbek Nodirovich	



Problems of determining the informativeness of input and output parameters in object management	275
Turapov Ulugbek Urazkulovich	
Tijorat banklari faoliyatiga foiz riskining ta'siri: ilmiy-nazariy asoslar va amaliyot tahlili	280
Turdiyev Abdulhakim Qulbazarovich	
Zamonaviy moy filtrlarining dvigatel ishlash resursini oshirishiga ta'siri.....	290
Mirzakarimov Rustambek Xusanboy o'g'li	
Qayta tiklanadigan energiya manbalari: zamonaviy global tendensiyalar va O'zbekiston uchun perspektivlar	295
Bozarov Elyor Boboqulovich, Rustamova Sarvinoz Azizbek qizi	
Kichik biznes va xususiy tadbirdorlikni rivojlantirishda investitsiyaning ahamiyati.....	300
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
Strengthening and enhancing the export potential of industrial enterprises for sustainable growth.....	305
Researcher of Tashkent State University of Economics	
Davlat tashkilotlarining bitiruvchilarga bo'lgan ehtiyoji va talablari.....	310
Daminova Barno Esanovna, Bozorova Irina Jumanazarovna,	
Pardayeva Muqaddas Zafar qizi	
Erkin iqtisodiy hududlar soliq rejimlarini takomillashtirishning xorij tajribasi.....	320
Boltayev Jo'rabek Yusofovich	
Tabiiy va sun'iy tolalar sanoatini diversifikatsiya qilish orqali investitsion jozibadorlikni oshirish.....	325
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B segmentida omnichannel marketing strategiyalarining qo'llanishi	331
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
O'zbekistonda kichik biznes faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari.....	338
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	
Task mapping and job scheduling implications of fdi inflows and governance quality metrics	343
Nilufar Zikirullaeva Dilmurod qizi	
Yangi O'zbekiston savdo-iqtisodiy munosabatlari rivojlanishida xizmatlar eksportining ahamiyati.....	350
Eshanulov Baxodir Abduraxmon o'g'li	
Budget daromadlarini shakllantirishda yirik soliq to'lovchilarning tutgan o'rni	357
Tohirov Shuhrat Niyoz o'g'li	
Davlat maqsadli jamg'armalari resurslarini boshqarish va samarali foydalanish yo'nalishlari.....	361
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Kichik biznes hamda xususiy tadbirdorlik subyektlari amaliy holati, sohani rivojlantirish asosları	365
Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g'li	
Korxonalarda moliyaviy instrumentlarning hisobi va audit masalalari	371
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Tijorat banklarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha zamonaviy tendensiyalar	375
Latipova Lola Ilhomovna	
Soliq stavkalarini tabaqlashtirish orqali soliq to'lovchilar faoliyatini muvofiqlashtirish	380
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	



SOLIQ STAVKALARINI TABAQALASHTIRISH ORQALI SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH

Abduraimova Nigora Abdugapparovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tabaqalashtirilgan soliq stavkalarini orqali soliq to'lovchilarning xatti-harakatlarini muvofiqlashtirishning nazariy va metodologik asoslari yoritilgan. Tadbirkorlik subyektlarining xo'jalik faoliyatiga fiskal tabaqalanishning ta'siri tahli qilinib, barqaror soliq tartibga solish sharoitida bunday siyosatning afzalliliklari va ehtimoliy xavf-xatarlariga baho berilgan. Shuningdek, soliq mechanizmlarini soliq to'lovchilarning tarmoq, hududiy va xulq-atvor xususiyatlariga moslashtirish zarurati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: soliq siyosati, soliq to'lovchi, soliq stavkalarini tabaqalashtirish, soliq xatti-harakati, fiskal tartibga solish, iqtisodiy faoliyat.

Abstract: This article explores the theoretical and methodological foundations of coordinating taxpayer behavior through the use of differentiated tax rates. It analyzes the impact of fiscal stratification on the economic activities of business entities and identifies the advantages and potential risks of such a policy under stable tax regulation conditions. The necessity of adapting tax mechanisms to sectoral, regional, and behavioral characteristics of taxpayers is substantiated.

Key words: tax policy, taxpayer, tax rate differentiation, taxpayer behavior, fiscal regulation, economic activity.

Аннотация: В статье раскрываются теоретико-методологические основы координации поведения налогоплательщиков посредством дифференцированных налоговых ставок. Проведен анализ влияния фискальной стратификации на хозяйственную деятельность субъектов предпринимательства, определены преимущества и потенциальные риски такой политики в условиях устойчивого налогового регулирования. Обоснована необходимость адаптации налоговых механизмов к отраслевым, территориальным и поведенческим особенностям налогоплательщиков.

Ключевые слова: налоговая политика, налогоплательщик, дифференциация налоговых ставок, поведение налогоплательщиков, фискальное регулирование, экономическая деятельность.

KIRISH

Soliq tizimini rivojlantirishning zamonaviy sharoitlari soliq-byudjet siyosatini shakllantirishda yuqori darajadagi moslashuvchanlik va maqsadlilikni talab qilmoqda. Bunday moslashuvning muhim vositalaridan biri soliq stavkalarini differentsiallashtirish bo'lib, u soliq to'lovchilarning iqtisodiy xususiyatlarini inobatga olish hamda ularni oqilona va shaffof xulq-atvorga rag'batlantirish imkonini beradi. Soliq stavkalarini tabaqalashtirish nazariyasi va amaliyotining o'rganilishi ayniqsa iqtisodiy notinchlik, byudjet cheklari hamda biznesga ortiqcha bosim o'tkazmasdan soliq bazasini kengaytirish zarurati sharoitida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Soliq tizimining samaradorligi va uning asosiy funksiyalarini to'liq amalga oshirishi, avvalo, tizimning amaliyotga qay darajada tatbiq etilishiga bog'liq. Biroq zamonaviy soliq tizimining asosiy muammolaridan biri shundaki, shakllantirishning asosiy tamoyili – "soliq stavkalarini differentsiallashtirish orqali yakka tartibdagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning adolatli soliqqa tortilishini ta'minlash" konsepsiysi to'liq amalga oshirilmagan[1].

Soliq stavkalarini tabaqalashtirish zarurati statistik ma'lumotlar bilan ham tasdiqlanmoqda: tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan sof foyda va daromadlar yalpi ichki mahsulot (YalM) va qo'shilgan qiymat ko'rsatkichlariga nisbatan yuqori sur'atlarda o'sib bormoqda. Bu esa iqtisodiyotda real tovarlar va xizmatlar bilan daromadlarni ta'minlash tendentsiyasining zaiflashayotganidan dalolat bermoqda.



MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING SHARHI

O. Jonson o'z tadqiqotida daromadli shaxslar uchun soliqni tabaqlashtirish va soliq yukini kamaytirishda soliq tahlilining muhimligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, mulkni rejalashtirish, aktivlarni taqsimlash va soliq to'lash muddatini kechiktirish kabi murakkab soliq rejalashtirish usullaridan foydalanish orqali yuqori daromadli shaxslar soliq natijalarini optimallashtirishlari va soliq majburiyatlarini minimallashtirishlari mumkin[2].

M. Davis soliqni tabaqlashtirishning strategik jihatlarini tahlil qilib, soliq stavkalarini differentialsallashtirish orqali soliq to'lovchilarning faoliyatini muvofiqlashtirishda soliqni rejalashtirish imkoniyatlarini aniqlash va baholash zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, u soliq tahlilining turli moliyaviy operatsiyalarning soliq oqibatlari haqida chuqurroq tushuncha berishi va soliq to'lovchilarga soliq natijalarini optimallashtirish hamda umumiy soliq majburiyatlarini kamaytirish uchun asosli qarorlar qabul qilishda yo'l-yo'riq ko'rsatishi mumkinligini ko'rsatadi[3].

S. Li empirik tadqiqotlarni tizimli tahlil qilib, soliq tahlilining kichik biznesni soliqqa tortishda muhim rol o'ynashini aniqlaydi. Soliqlarni prognozlash, soliqqa rioya qilish va soliq imtiyozlardan foydalanish kabi tahlil usullarini qo'llash orqali kichik korxonalar soliq yukini kamaytirishi va moliyaviy ko'rsatkichlarini yaxshilashi mumkinligini isbotlaydi. Ushbu dalillar soliq tahlilining kichik biznes egalari uchun soliq majburiyatlarini samarali boshqarishda qimmatli vosita ekanligini ko'rsatadi[4].

S. Chen esa kichik biznes uchun o'zgaruvchan soliq qonunlari, qoidalar va biznes sharoitlariga moslashish hamda umumiy soliq yukini kamaytirish uchun doimiy soliq tahlilining ahamiyatini ta'kidlaydi. U soliq natijalarini optimallashtirishda soliq tahlilining barqaror amalga oshirilishi zarurligini asoslaydi[5].

J. Anderson o'z maqolasida soliq to'lovchilarga soliq yukini kamaytirishga yordam berishda chegirmalar, kreditlar va imtiyozlarni optimallashtirish orqali soliqlarni tejashni maksimal darajada oshirish va, natijada, soliq majburiyatlarini kamaytirish imkoniyatlarini har tomonlama tahlil qiladi[6].

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlarda soliq tahlilining soliq yukini kamaytirishga ijobiy ta'siri ta'kidlanadi. Soliq bilan bog'liq omillarni sinchkovlik bilan baholash, rejalashtirish va optimallashtirish orqali soliq stavkalarini tabaqlashtirish yordamida soliq to'lovchilarning xatti-harakatlarini muvofiqlashtirish va soliq yukini strategik boshqarish imkoniyati shakllanadi. Natijada, soliqdan keyingi moliyaviy natijalar sezilarli darajada yaxshilanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada tabaqlashtirilgan soliq stavkalari vositasida soliq to'lovchilarning xatti-harakatlarini muvofiqlashtirishning nazariy va uslubiy asoslari tizimlashtirildi. Tadqiqot maqsadiga erishish uchun adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish, farazlarni asoslash, tahlilni qiyoslash, tizimli va mantiqiy yondashuv kabi ilmiy usullardan samarali foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Soliqqa tortish nazariyasida ta'kidlanganidek, soliq tizimini shakllantirishda umumiy tamoyillar bilan bir qatorda, maxsus tamoyillar, xususan, soliq stavkalarining optimal darajasi tamoyili ham ishlab chiqilgan. Soliq tizimining samaradorligi, ya'ni tizim ichidagi asosiy xarakteristika sifatida soliq stavkalarini tabaqlashtirish va ularni ilmiy asoslash bo'lsa, bu jarayon soliq tizimini optimal va potentsial samarali holatga keltirishni, stavkalarning asosli differentsiatsiyasini amalga oshirishni nazarda tutadi. Ushbu masala mutaxassislar orasida uzoq yillardan beri muhokama qilinmoqda. Aynan soliq stavkalarining maqbul darajasiga rioya qilish soliqqa tortishning tenglik tamoyilini amalda ta'minlash imkonini beradi. Soliqqa tortish nazariyasini va amaliyotida tenglik tamoyili ikki yondashuv asosida ko'rib chiqiladi: birinchi yondashuvda adolatlilik "vertikal va gorizontal tenglik printsipi" sifatida talqin qilinadi, ya'ni daromad miqdoridan qat'i nazar, soliq doimiy stavka asosida mutanosib undiriladi; ikkinchi yondashuv esa vertikal adolatlilik va gorizontal adolatlilik tamoyillari yig'indisiga asoslanadi, bunda turli sharoitdagagi subyektlarga turlicha yondashish va bir xil sharoitdagilarga teng munosabatda bo'lish talabi ilgari suriladi.



Differentsiallashgan soliq stavkasi soliq siyosatining shakli bo'lib, u faoliyat ko'lami, tarmoqqa mansubligi, rentabellik darajasi va ijtimoiy-iqtisodiy hissaga qarab o'zgaruvchan stavkalarni nazarda tutadi. Bu yondashuv adolatli soliqqa tortish, resurslarni taqsimlash samaradorligi va soliq to'lovchilarining xatti-harakatlarini rag'batlantirish tamoyillariga asoslanadi. Institutsional nazariya nuqtai nazaridan differentsiatsiya xususiy va davlat sektorlari manfaatlarini muvofiqlashtirish mexanizmi sifatida qaralsa, xulq-atvor iqtisodiyoti nuqtai nazaridan soliq to'lovchilarining motivatsiyasini boshqarish va soya iqtisodiy faoliyatini kamaytirish vositasi sifatida baholanadi.

Soliq to'lovchilarining xatti-harakatlarini muvofiqlashtirish turli stavkalar orqali amalga oshiriladi: faoliyatning ayrim turlarini rag'batlantirish (innovatsiyalar, "yashil iqtisodiyot", kichik biznes), hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tenglashtirish, shuningdek, inqiroz davrida stavkalarni moslashtirish orqali. O'zbekistonda so'nggi yillarda soliq stavkalarini tabaqlashtirish orqali soliq to'lovchilarining faoliyatini moslashtirish maqsadida aniq choralar ko'rilmoxda. Xususan, rag'batlantiruvchi tabaqlanish doirasida IT sektori va startaplar uchun 2028-yilgacha daromad solig'i, QQS, mol-mulk solig'i va boshqa majburiy to'lovlardan ozod qilish, qayta tiklanadigan energiya manbalari sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalarga soliq imtiyoziarini berish, kichik biznes va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun soddallashtirilgan soliqqa tortish tizimlarini joriy etish kabi chora-tadbirlar amalga oshirildi. Hududiy tabaqlanish bo'yicha esa iqtisodiy rivojlanish darajasi past bo'lgan hududlarda (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo viloyati va boshqalar) faoliyat yuritayotgan korxonalar uchun 3–5 yilgacha daromad va mol-mulk soliqlari bo'yicha imtiyozlar taqdim etildi, shuningdek, "Navoiy", "Angren" va "Jizzax" kabi hududlarda investitsiya hajmiga qarab soliq stavkalarini pasaytirildi yoki nol stavkalar joriy qilindi.

Inqirozga qarshi choralar doirasida esa 2020–2021-yillarda pandemiya oqibatida zarar ko'rgan sohalar (turizm, transport, xizmat ko'rsatish) uchun foya solig'i, ijtimoiy to'lovlari va QQS stavkalarini vaqtincha pasaytirildi, soliq to'lovlarini kechiktirish va bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatlari yaratildi. 2022–2023-yillarda esa xomashyo narxlarining o'sishi va inflyatsiya xavf-xatarlariga qarshi aksiz stavkalarini qayta ko'rib chiqildi hamda zarur mahsulotlar ishlab chiqaruvchilarga soliq imtiyozlari kengaytirildi.

O'zbekistonda soliq yuki umumiy o'rtacha 20 foiz atrofida bo'lsa-da, oxirgi yillarda soliqlardan berilgan imtiyozlar natijasida bu ko'rsatkich kamaydi. 2019-yilda foya solig'i stavkasi 14 foizdan 12 foizga tushirilishi natijasida 291 milliard so'm, dividendlardan olinadigan soliq 10 foizdan 5 foizga kamaytirilishi orqali 208 milliard so'm, yagona ijtimoiy to'lov stavkasi 25 foizdan 12 foizga tushirilishi va daromad solig'i stavkasi yagona 12 foiz qilib belgilangani, shuningdek, fuqarolarning daromadlaridan olinadigan 8 foizlik sug'urta badallarining bekor qilinishi natijasida jami 7,4 trillion so'm, yagona soliq to'lovining 5 foizdan 4 foizga pasayishi orqali 222 milliard so'm, mol-mulk solig'inining 5 foizdan 2 foizga tushirilishi natijasida 1 222 milliard so'm, davlat maqsadli jamg'armalarga ajratmalarni bekor qilish hisobiga 5,2 trillion so'm va QQS stavkasining 20 foizdan 15 foizga kamaytirilishi orqali 2 trillion so'm mablag' soliq to'lovchilarining ixtiyorida qoldi. Umuman olganda, 2019-yilda soliq to'lovchilarga jami 16,5 trillion so'm mablag' qoldirilgan. Bu holat O'zbekistonda soliq yukining o'rtacha 18,5 foizgacha pasayishiga olib keldi va dunyo miqyosida eng past soliq yuki ko'rsatkichlaridan biri sifatida baholanmoqda[9].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-martdag'i "Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5969-sonli¹ Farmoniga ko'ra, 2020-yil 1-apreldan 1-oktabrgacha bo'lgan davrda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun ijtimoiy soliqning oylik eng kam summasi bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizigacha kamaytirildi, alkogol mahsulotlarining ulgurji savdosи bilan shug'ullanuvchi korxonalarning ajratmalari miqdori 5 foizdan 3 foizga pasaytirildi, umumi ovqatlanish korxonalari uchun alkogol mahsulotlarini chakana sotish huquqi uchun yig'imlar miqdori belgilangan miqdorlardan 25 foizga kamaytirildi.

Shuningdek, 2020-yil 1-apreldan 1-iyulgacha bo'lgan davrda turistik (mehmonxona) yig'imini hisoblash va to'lash to'xtatildi, qishloq xo'jaligidagi yerlarni sug'orish uchun foydalilaniladigan hajmlar

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-martdag'i "Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5969-sonli Farmoni: <https://lex.uz/uz/docs/-4770761>



bo'yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 2020-yilda o'rnatilgan stavkalardan 50 foizga pasaytirildi. 2019-yil uchun jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etish muddati 2020-yil 1-avgustga qadar uzaytirildi, jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i va yer solig'ini to'lash muddati esa 2020-yil 15-oktabrgacha kechiktirildi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 1-apreldagi qaroriga asosan, jismoniy shaxslar tomonidan xayriya tashkilotlaridan moddiy naf tarzida olinadigan daromadlar soliqqa tortishdan ozod qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-apreldagi "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5978-sonli² Farmonida esa yana bir qator imtiyozlar belgilandi. Xususan, turistik va mehmonxona faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar 2020-yil yakunigacha yer va mol-mulk soliqlarini to'lashdan ozod qilindi, karantin davrida faoliyatini to'xtatishga majbur bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun daromad solig'i va ijtimoiy soliqni hisoblash to'xtatildi, tushumi o'tgan oydagiga nisbatan 50 foizga kamaygan kichik biznes subyektlari uchun aylanmadan olinadigan soliq, yer solig'i, mol-mulk solig'i, ijtimoiy soliq va suv solig'ini to'lash muddati 2020-yil 1-oktabrgacha kechiktirildi. Bundan tashqari, 2020-yil yakunigacha un, o'simlik yog'i, go'sht va sut mahsulotlari, shakar hamda gigiyena vositalari kabi asosiy iste'mol tovarlarini import qilishda bojxona boji va aksiz solig'i undirilmasligi belgilandi[9].

Bunday chora-tadbirlar xarajatlarni optimallashtirish, daromadlarni qonuniylashtirish va iqtisodiyotni huquqiy sohaga jalb qilish orqali soliq to'lovchilarining xatti-harakatlarini o'z-o'zini tartibga solish uchun zarur sharoitlarni yaratadi. Muvofiglashtiruvchi ta'sir esa soliqqa chidamlilik darajasining pasayishi va soliq majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda bajarishning kuchayishi orqali namoyon bo'ladi. Shu bois tabaqalashtirilgan tarif tizimini joriy etish qat'iy uslubiy va me'yoriy-huquqiy bazani, shuningdek, shaffof mezonlar va samarali nazorat mexanizmlarini talab etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Soliq stavkalarini differentsiallashtirish bir vaqtning o'zida iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va fiskal barqarorlikni ta'minlashga qodir bo'lgan, soliq to'lovchilarining xatti-harakatlarini muvofiglashtirishning samarali vositasi sifatida qaralishi mumkin. Biroq uning samaradorligi bevosita soliq ma'muriyatçiligi sifatiga, soliq tizimining raqamlashtirilish darajasiga hamda soliqning fiskal va rag'batlantiruvchi funksiyalari o'rtasidagi muvozanatni saqlashga bog'liq. Bunday vositalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish har tomonlama tahlilni, fanlararo yondashuvni hamda milliy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlarini chuqr hisobga olishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Аткинсон А. Б., Стиглиц Дж. Э. Экономика государственного сектора. – М.: Издательство МГУ, 2020.
- Olivia Johnson. Tax Optimization for High-Net-Worth Individuals: A Review of the Literature. Wealth Management Quarterly: March 2020. Page: 78.
- Michael Davis. Tax Analysis and Tax Planning: A Synergistic Approach for Minimizing Tax Liabilities. Taxation Today Publication: July 2017. Page: 56.
- Sarah Lee. The Impact of Tax Analysis on Small Business Taxation: Evidence from Empirical Studies. Small Business Economics: September 2018. Page: 112.
- Sarah Chen. Tax Analysis for Small Businesses: A Practical Approach to Reducing Tax Burden. Small Business Taxation Quarterly: April 2019. Page: 34.
- Jessica Anderson. Maximizing Tax Savings through Effective Tax Analysis. Journal of Tax Strategies: June 2018. Page: 45.
- Исаев Ф. И. Солик юкини камайтиришда солик таҳлилининг таъсирига оид назарий мулоҳазалар. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. 2/2023, mart–aprel (№ 00064).

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-apreldagi "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5978-sonli Farmoni: <https://www.lex.uz/uz/docs/-4780475>



8. Петрова И. А. Дифференциация налогового бремени в современной экономике // Финансы и бизнес. – 2023. – № 4. – С. 45–52.
9. Худойқулов С. К. Пандемия шароитида Ўзбекистон солиқ тизимида солиқ имтиёзлари ва уларнинг бюджетга таъсири. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul–avgust, 2020-yil.

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100